

Surxondaryolik yosh ijodkorga Prezident sovg'asi - "Spark" avtomashinasi topshirildi



Surxondaryolik yosh ijodkorga Prezident sovg'asi - "Spark" avtomashinasi topshirildi Davlatimiz rahbari Surxondaryo viloyatiga tashriflari chog'ida Termiz shahrida qurib bitkazilgan yangi ko'p qavatli uyga ko'chib o'tgan Nazira Raximova xonadonida bo'lgan davlatimiz rahbari yolg'iz ona hamda uning dilbandi Ruxshona bilan ham suhbatlashildi. Samimiy muloqot chog'ida yosh ijodkor Ruxshona davlatimiz rahbariga yangi nashrdan chiqqan kitobini sovg'a qildi. O'z navbatida bilimli, zukko, oqila, yuksak iqtidor sohibiga davlatimiz rahbarining mehri tushib, "Spark" avtomashinasi sovg'a qilishini ma'lum qildi. Bugun Nazira Raximova xonadoniga keng jamaotchilik vakillari tashrif buyurishdi. Prezidentimiz sovg'asini -"Spark" avtomashinasi tantanali topshirildi. Shu munosabat bilan uyushtirilgan tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov, Yoshlar ishlari agentligi Alisher Sa'dullaev, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Minhojiddin Mirzajonovich, O'zbekiston Yozuvchilar

uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid va boshqalar ishtirok etib, o'zlarining dil so'zlarini izhor etishdi. Ta'kidlangidek, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati izchil va samarali amalga oshirilmoqda. Yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, taklif va tashabbuslarini rag'batlantirish, ularning intellektual va ijodiy faoliyatlarini qo'llab-quvvatlashga yuksak darajada e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumot o'rnida, Ruxshona Abdurazzoqova viloyatning Denov tumanida tug'ilib o'sgan. Ikki yil muqaddam puxta bilim olish, o'z iqtidorini to'laroq namoyon etish maqsadida onasi bilan Termiz shahriga ko'chib keldi. Ruxshonabonu hozirda Termizdagi 1-son al-Hakim at-Termiziy nomidagi yosh fizik va matematiklar maktab internatida tahsil olmoqda. U o'qib, o'rganish barobarida mudom ijodiy izlanishda. Maqsad sari qat'iy intilishi unga hamisha omad va zafar eshigini ochib bermoqda.

